

SARLAVHALARDA PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI

O'tanova Shaxnozaxon Maxmudovna

Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Presuppozitsiya, ma'lum bir gapdan oldin qabul qiluvchiga tanish yoki ma'lum bo'lgan semantik komponent sifatida ko'rindi va undagi ma'lumotlar, so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiylasos sifatida xizmat qiladi. Bu hodisaning ahamiyati shundaki, u o'z-o'zidan qabul qilinadi va adresat uchun presupozitsiyaning ichki ma'nosi haqida o'ylashga hojat qolmaydi.

Kalit so'zlar: Presuppozitsiya, lingvistika, semantika, pragmatika, lug'at, nutq.

Abstract: A presupposition appears as a semantic component that is known or known to the receiver before a certain sentence, and the information in it serves as a common basis for the speaker and the listener. The importance of this phenomenon is that it is taken for granted and the addressee does not need to think about the inner meaning of the presupposition.

Key words: Presupposition, linguistics, semantics, pragmatics, vocabulary, discourse.

Аннотация: Пресуппозиция выступает как смысловая составляющая, которая известна или известна получателю до определенного предложения, а информация, содержащаяся в ней, служит общей основой для говорящего и слушающего. Важность этого явления в том, что оно воспринимается как нечто само собой разумеющееся и адресату не нужно задумываться о внутреннем смысле пресуппозиции.

Ключевые слова: Пресуппозиция, лингвистика, семантика, прагматика, лексика, дискурс.

Presuppozitsiya mantiqdan kelib chiqqan va lingvistik tadqiqotlarda juda mashhur bo'lgan tushunchadir. Presuppozitsiyalar 1892 yilda nemis matematiki, mantiqchisi va faylasufi G. Frege tomonidan ta'riflangan. Keyinchalik Oksford maktabi vakili P.F. Strawson¹ 1950 yilda ushbu hodisani o'rganib chiqdi va tegishli atamani kiritdi. Presuppozitsiya tushunchasi hozirda bevosita ifoda etilgan ma'nolarga ega bayonotlarni tahlil qilishda ishlataladi.

Presuppozitsiya – bu so'zlovchining suhbattoshining muloqot jarayonidagi umumiylasos bilimlari, munosabatlari va ruhiy holatiga bergan bahosi bo'lib, alohida til munosabatlari jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarda ifodalangan fikrni o'quvchi yoki tinglovchining to'g'ri anglab yetishi uchun muhimdir.

Presuppozitsiya, ma'lum bir gapdan oldin qabul qiluvchiga tanish yoki ma'lum

¹ Strawson P. F. On referring. Mind. - Cambridge University press, 2014. – 344 p.

bo‘lgan semantik komponent sifatida ko‘rinadi va undagi ma’lumotlar, so‘zlovchi va tinglovchi uchun umumiylasos sifatida xizmat qiladi. Bu hodisaning ahamiyati shundaki, u o‘z-o‘zidan qabul qilinadi va adresat uchun presupozitsiyaning ichki ma’nosi haqida o‘ylashga hojat qolmaydi. Natijada, presupozitsiya kommunikatsion jarayonning samaradorligini oshiradi va ishtirokchilar o‘rtasida umumiylushuncha va fikr almashishni ta’minlaydi.

Umuman olganda, lingvistik presupozitsiyaning ikki turi mavjud: pragmatik va semantik presupozitsiya. Tadqiqot ishida bizning e’tiborimiz pragmatik presupozitsiyaga qaratilgan. Agar presupozitsiyaga pragmatik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, pragmatik taxmin o‘quvchiga yashirin ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi.

Pragmatik presupozitsiya deganda adresat va adresantning umumiyl bilim tizimi va umumiyl bilim sohasi tushuniladi. U mo‘ljallangan maqsadga qarab ishlataladi.

Tilshunoslikda asosan ikki turdagи presupozitsiya haqida so‘z boradi. Ularning birinchisi, umumiyl presupozitsiya dunyo haqidagi umumiyl bilimlar to‘plami bo‘lib, u voqelik borliqni idrok etishi uchun inson bilishi kerak bo‘lgan bilim asosi sifatida tushuniladi. Inson o‘zining ma’no va mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy voqeligini shakllantirgan jamiyatning ijodiy faoliyati olamiga qadam qo‘yadi. Sotsiologiya jarayonida u o‘sha jamiyatga mansub “umumiyl ma’nolar olami” ni o‘rganadi, tashqi olam voqeligiga moslashadi va uni mustaqil izohlaydi.

Presupozitsiya gap qurilishidagi yashirin hukmning tashqi ishoraga asoslanishini anglatadi. Agar bu tashqi ishora tilda moddiy ifodachiga ega bo‘lsa, presupozitsiya lingvistik xususiyatga ega bo‘ladi. Shu boisdan, lingvistik presupozitsiya gapdagi lisoniy vositalar orqali yashirin axborot sifatida baholanadi.

Shu kungacha tilshunoslikda presupozitsiya hodisasiga turli atamalar qo‘llanilgan. Jumladan, “presupozitsiya”, “prezumpsiya”, “tag bilim”, “ichki ma’no”, “monema”, “pragmatik ma’no” va “sigmatik ma’no”.

Presupozitsiya odatda gapda muayyan til birligining ishorasi orqali yashirin ma’lumot tarzida yuzaga chiqadi. So‘zlovchi obyektiv voqelik haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborotni ifoda etishni xohlamaganda, presupozitsiya orqali bu yashirin ma’no shakllanadi. Presupozitsiya nutqda so‘zlovchi va tinglovchilarning umumiyl bilimlari hamda til ko‘nikmalarini talab qiladi.

Presupozitsiyaning yashirin ifodalananish xususiyati uning gap tashqi tuzilishi bilan qorishmasligiga yordam beradi. Olim M. Hakimov presupozitsiyani matn semantik implikaturasining birligi, deb ta’kidlaydi. Bu hodisa har bir tilda o‘ziga xos ifoda vositalari bilan namoyon bo‘ladi va tilning ichki imkoniyatlari orqali belgilanadi.

Lingvistik presupozitsiyaning bir necha asosiy xususiyatlari ajratib ko‘rsatiladi:

1. U til birligining kontekst, nutq vaziyati va so‘zlovchi-tinglovchilarning umumiyl bilimlari bilan bog‘liq bo‘ladi;

2. U gapda yashirin tarzda ifodalanuvchi ma'noni aks ettiradi;
3. U orqali ifodalangan gapning tashqi tuzilishida bevosita ifodalanmasa ham, semantik jihatdan yashirin ifoda mavjud bo'ladi;
4. U sintaktik tuzilishda muayyan tashqi signallarga ega bo'ladi;
5. U so'zlovchilarga oldindan ma'lum bo'lgan voqelikni aks ettiradi;
6. Tejamlilik tamoyili asosida gap tarkibida bir birlikning vazifasi boshqa bir birlik zimmasiga yuklanadi;
7. U gapning semantik tuzilishini murakkablashtiradi;
8. U propozitsiya bilan bog'liq bo'lgan, lekin unga qarshi keluvchi yashirin axborotni ifoda etadi.

Tilshunoslar presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til vositalariga katta e'tibor qaratganlar. Tilda presuppozitsiya leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, presuppozitsiyaning o'ziga xos signallari tilning tejamlilik tamoyili bilan bog'liq bo'lgan murakkab mazmunni yashirin tarzda yetkazishda ishtirok etadi.

Lingvistik presuppozitsiya nutqda turli sintaktik qurilmalar orqali namoyon bo'ladi. Biroq ularning to'g'ri tushunilishi uchun kontekst, nutq vaziyati va nutq ishtirokchilarining umumiyligi bilimlari muhim rol o'ynaydi. Presuppozitsiyani to'g'ri anglash uchun nolisoniy omillar, xususan, nutqiy vaziyat va ishtirokchilarning bilimlari katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, lingvistik presuppozitsiyani o'rganishda tilshunoslar presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til birliklariga alohida e'tibor qaratishgan. Chunki bu til birliklarini o'rganish orqali gapning mazmuniy tuzilishidagi o'zgarishlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tilning o'ziga xos lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi signallari mavjud.

U. Rahimov o'zbek tilida lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi signallarni leksik, morfologik va sintaktik vositalarga ajratgan. Unga ko'ra, leksik vositalarga omonim, sinonim va antonimlar kiradi, morfologik vositalarga esa, turli so'z turkumlari, ko'makchilar va yuklamalar kiritiladi. Sintaktik vositalarga so'roq gaplar, o'xshatishli qurilmalar va so'z tartibi kiradi.

Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksik-grammatik vositalar sifatida ko'makchilar, yuklamalar va bog'lovchilarni, sintaktik vositalar sifatida esa uch turdag'i istakni ifodalovchi sintaktik qoliplarni ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbek tilida murakkab mazmunni sodda sintaktik shakllar orqali ifodalashda presuppozitsiyaning signallari xilma-xil bo'ladi. Bu lisoniy vositalar gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtiradi va qo'shimcha axborotni yashirin tarzda

ifodalaydi. Lingvistik presuppozitsiya odatda gap mazmuniga zid bo‘lgan yashirin axborotni yuzaga chiqaradi. Ba’zida lingvistik presuppozitsiya bilan birgalikda ekstralengvistik presuppozitsiya ham mavjud bo‘lishi mumkin. Bu holatda lingvistik presuppozitsiya til vositalari orqali yuzaga chiqsa, ekstralengvistik presuppozitsiya esa nutq vaziyati, so‘zlovchining voqelikka munosabati va oldindan mavjud bilimlarga asoslanadi.

Lingvistik presuppozitsiya tejamlilik tamoyili asosida ham yuzaga chiqadi. Tejamlilik prinsipida til birliklarining vazifalari boshqa birliklarga yuklatilib, gapning shakliy ixchamligi ta’milnadi. Bu tamoyil yordamida gapning ayrim qismlari tushirib qoldiriladi va lingvistik presuppozitsiya orqali qo‘sishimcha ma’no beriladi. Shunday qilib, presuppozitsiya nutq tarkibida yashirin ma’lumotni ifoda etadi, lekin bu ma’lumot nutq ishtirokchilari tomonidan qiyinchiliklarsiz tushuniladi.

Shuni aytish mumkinki, presuppozitsiya nutqiy vaziyat va kontekst bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadigan yashirin hodisadir. Uning tushunilishi uchun nolisoniy omillar, ya’ni kontekst, nutq vaziyati va ishtirokchilarning oldindan mavjud bilimlari katta ahamiyat kasb etadi. Nutq egalari nutq vaziyatidan bexabar bo‘lishsa yoki tilni yaxshi bilmasa, presuppozitsiyani tushunishlari qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli presuppozitsiyani o‘rganishda pragmatik jihatlar va gapning semantik tuzilishi bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘tkazish muhimdir.

Presuppozitsiya ma’lumotlar “lug‘atda yozilgan matn tarkibiy qismlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini anglatmaydi. Ma’nuning yashirin tarkibiy qismlari tilning rasmiy leksik va grammatik tarkibida mustaqil aniq ifodaga ega emas. Ular sintetik tarzda ifodalanadi. Yashirin ma’lumotni aniqlash uchun ma’lum aqliy operatsiyalar zarurligini unutmaslik zarur. Presuppozitsiya tushunchasi bevosita ifoda etilgan ma’nolarga ega bayonotlarni tahlil qilishda ishlataladi. Presuppozitsiya lug‘atda yozilgan matn tarkibiy qismlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini anglatmaydi va shu bilan birga ushbu matn tinglovchi tomonidan qabul qilinadi.

Presuppozitsiyali ma’lumotni aniqlash uchun ma’lum aqliy operatsiyalar mavjud. Bular quyidagilar:

1. Hodisalar o‘rtasidagi tabiiy munosabatlar (mantiqiy taxminlar) haqida gapirish;
2. Nutq aktining samaradorligi shartlarini ta’minalash;
3. Ma’lum so‘z yoki so‘zlarni boshqa so‘z bilan semantik jihatdan aniqlash;
4. Nutq adresatining xabardorlik darajasi haqida boxabar bo‘lish.

Obyektning mavjudligi va o‘ziga xosligi haqidagi presuppozitsiyalar odatda “ekzistensial” deb ataladi. Kommunikativ ahamiyatga asoslanib, presuppozitsiyalar gapning iddao qiluvchi qismiga - unda aytilgan, so‘ralgan va hokazolarga qarshi turadi. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” idagi “*Atlantika okeani ustida*” Atlantika okeanining mavjudligiga, “*Xudoning quadrati*” esa, Xudoning

mavjudligiga ishonish ma’nosining taxminiy qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Strawson P. F. On referring. Mind. - Cambridge University press, 2014. – 344 p.
2. Safarov Sh. Pragmalingvistika. –Toshkent., 2008. – 231-250 b.
3. Saidxonov M.M. Noverbal vositalar va ularning o‘zbek tilida ifodalanishi. Filol. fan. nom. diss. – Toshkent. 1993. –161 b.
4. Umarxodjayev M.E. “Qizil kitob” ga tushmagan tuyg‘ular: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 114 b.
5. Ашуррова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. – Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – №3 (40). – Самарканд, 2011.– 26-33 с.